INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISH

Il’yasova Dilshoda akmal qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.22787892

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini bolalar adabiyoti vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda bolalar adabiyoti namunalarining o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, badiiy obrazlarni idrok etish, estetik baholash va ijodiy munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim sharoitida turli individual imkoniyat va ehtiyojlarga ega o‘quvchilarni adabiy-badiiy faoliyatga jalb etish orqali ularning estetik qadriyatlar, empatiya, o‘zaro hurmat va ijtimoiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Bolalar adabiyotidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar estetik tarbiya va inklyuziv ta’limning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi muhim omil sifatida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, inklyuziv ta’lim muhiti, bolalar adabiyoti, boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, estetik did, estetik tarbiya, badiiy obraz, estetik idrok, estetik qadriyatlar, empatiya, individual yondashuv, adabiy-badiiy faoliyat, pedagogik imkoniyatlar.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida har bir bolaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan inklyuziv yondashuvni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Inklyuziv ta’lim nafaqat turli ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish, balki barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat, o‘zaro hurmat, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv muhitini yaratishni nazarda tutadi. Shu jihatdan inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ma’naviy-axloqiy va estetik dunyoqarashini shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning atrof-muhitni anglash, go‘zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik, mehr-oqibat va befarqlik kabi tushunchalarni farqlay boshlaydigan muhim davr hisoblanadi. Mazkur jarayonda estetik didning rivojlanishi o‘quvchining borliqni nafaqat bilish, balki uni hissiy-emotsional jihatdan idrok etishi, go‘zallikni qadrlashi, badiiy obrazlarni tushunishi va ularga mustaqil baho bera olish qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Estetik didning shakllanishi bolaning ijodiy tafakkuri, tasavvuri, hissiy sezgirligi va madaniy qadriyatlarga munosabatining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik dunyosini shakllantirishda samarali pedagogik vositalardan biridir. Ertak, hikoya, she’r, masal va boshqa badiiy asarlardagi obrazlar, tabiat tasvirlari, voqealar rivoji hamda qahramonlarning xatti-harakatlari o‘quvchilarning hissiy olamiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy asarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida bola go‘zallikni his qilish, qahramonlarning kechinmalarini anglash, ularning xatti-harakatlariga baho berish va turli hayotiy vaziyatlarga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirish

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli bolalar adabiyotidan maqsadli foydalanish estetik tarbiyaning mazmunini boyitish bilan birga o‘quvchilarda insonparvarlik va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bolalar adabiyotining imkoniyatlari yanada kengayadi. Chunki badiiy asarlarda turli xarakter, qobiliyat, hayotiy tajriba va ijtimoiy muhitga ega bo‘lgan obrazlarning aks ettirilishi o‘quvchilarda insonlar o‘rtasidagi farqlarni tabiiy qabul qilish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va hamkorlik qilish kabi sifatlarni shakllantirishga zamin yaratadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida adabiy-badiiy faoliyatni barcha o‘quvchilar uchun tushunarli va mos shakllarda tashkil etish ularning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash bilan birga estetik tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini rivojlantirishni inklyuziv ta’lim tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda bolalar adabiyotining mazmuni, janriy xususiyatlari, badiiy obrazlari va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning estetik idroki va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish, shu bilan birga, turli individual xususiyatlarga ega bolalar o‘rtasida o‘zaro tushunish va ijobiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida estetik didni tarbiyalash shaxsning madaniy va ma’naviy kamoloti uchun juda muhimdir. Bolalar adabiyoti esa bolaning estetik dunyosini boyitishda eng samarali vositalardan biridir. Shu bois, ushbu bo‘limda bolalar adabiyotining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini shakllantirishda pedagogik ahamiyati tizimli ravishda tahlil etiladi.

Adabiy janrlar, xususan, roman va she’riyat insonning estetik didini shakllantirish, hissiy tajribasini boyitish, tanqidiy va obrazli tafakkurini rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi. Shu sababli badiiy adabiyotning shaxs kamolotidagi o‘rni hamda uning boshqa axborot va madaniy vositalardan farqli jihatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb pedagogik va adabiy muammolardan biri hisoblanadi.

Kichik hajmli ertak, hikoya va matnlar orqali o‘quvchida kitobxonlik ko‘nikmalari oson, sodda va bosqichma-bosqich shakllanadi. Badiiy kitoblar, shu jumladan nasriy asarlar o‘quvchining his-tuyg‘ulari, ichki dunyosi va xulq-qtvorini tarbiyalaydi. Bugun zamonaviy ta’limda kitobning vazifasi ma’lumot berish, u aynan didaktik tamoyilga asoslanishi shart emas degan ilmiy farazlar ham mavjud. Ammo kitoblar, ayniqsa bolalar kitoblari o‘zining didaktik prinsiplarga asoslangani bilan ahamiyatli hisoblanadi. 7 yoshgacha bolalar ham jisman ham aqlan shiddat bilan rivojlanadi, bu vaqt oralig‘ida kichkintoyning jismonan rivojlanishi uchun turli vitamin va minerallar ne chog‘lik zarur bo‘lsa, aqliy kamoloti uchun kitob shu qadar muhim hisoblanadi[1].

Shunday ekan, o‘qituvchilarning bolalarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirishga intilishlari uchun yetarlicha asosli sabablar mavjud. Badiiy adabiyot nafaqat ko‘ngilochar, axborot beruvchi va hordiq chiqarish vositasi sifatida xizmat qiladi, balki shaxsning intellektual hamda ma’naviy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, hikoya va she’riy asarlar o‘quvchilarda atrof-muhit hodisalarini chuqurroq anglash, voqea va jarayonlarga tanqidiy hamda tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek,

[1] Bo‘riboyev Ikrom. Hamma o‘qiyapti, o‘qing! Jadid gazetasi 2024-yil, 50-son.

bunday asarlar insonlarning xatti-harakatlari va ularning motivlarini teranroq tushunish, turli ijtimoiy vaziyatlarni baholash hamda empatik munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan badiiy adabiyot shaxsning refleksiv tafakkurini rivojlantirish va uning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Har qanday zamonaviy shakldagi mutolaa ilovalaridan qat’iy nazar, kitoblar o‘z-qadr va qimmatini yo‘qotmaydi[2]. Badiiy kitoblar ham ilmiy-ommapob kitoblar kabi muallif, olim, yozuvchining hayotiy tajribalar asosida yoziladi. Kitob mutolaasi o‘quvchida to‘g‘ri fiklash, voqea-hodisani tasavvurda obrazlantirish, o‘qigan voqea-hodisalari ustida xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ilmiy va badiiy kitoblar inson aqlini charxlagani bois kitobxonga hayot yo‘llarida duch keladigan muammolarga oson yechim topishga ko‘maklashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish – o‘quvchining ijtimoiy-hissiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda milliy kontentlar vositasida bilim, dunyoqarashini boyitadigan, estetik didini tarbiyalaydigan ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi.

Kitob ta’lim jarayoninig asosi, bilim olishning bosh vositasi hisoblanadi. Kitob sahifalarida bilim va ma’lumotlar sistemetik tarzda o‘rin oladi. Kitob kitobxonda bilim va ma’lumotlarni o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kitobxonlik ilmiy, ommabop, badiiy kitoblarni muntazam mutolaa qilish jarayoni orqali rivojlanadi[3].

O‘quvchilarga mo‘ljallangan kitoblar ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotga bo‘linadi. Ilmiy-ommabop adabiyot o‘quvchini fan va texnika mavzusiga doir axborot bilan tanishtiradi. Fan arboblarining biografik asarlari ham shu turga kiruvchi asar hisoblanadi. Bu tur o‘z ichiga kitob, risola, jurnal va boshqalarni oladi. Nashrlar ilmiy masalaning mohiyatini to‘la saqlagan holda uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, o‘quvchining g‘oyaviy-ilmiy saviyasini o‘stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Kitobxonlik ko‘nikmasi – deb kitob o‘qish qoidalaridan boxabar bo‘lish, mutolaaga qiziqish, kitobxonning ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asarni) tanlash, kitob o‘qishga odatlanish, bu harakatning izchil va uzluksiz davom etishi, o‘qigan kitobning mazmunini anglash, kitob mutolaasidan keyin taassurotlarni ifoda etish ko‘nikmalarning malakaga aylanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat natijasiga aytiladi[4]. Mutola bilim olishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, olamni idrok etish, o‘rganishda kitob mutolaasi asosiy o‘rin tutadi. Kitoblar tematik, janr jihatdan va yosh xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi[5].

Shunday ekan, o‘qituvchilarning bolalarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirishga intilishlari uchun yetarlicha asosli sabablar mavjud. Badiiy adabiyot nafaqat ko‘ngilochar, axborot beruvchi va hordiq chiqarish vositasi sifatida xizmat qiladi, balki shaxsning intellektual hamda ma’naviy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, hikoya va she’riy asarlar o‘quvchilarda atrof-muhit hodisalarini chuqurroq anglash, voqea va jarayonlarga tanqidiy hamda tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bunday asarlar insonlarning xatti-harakatlari va ularning motivlarini teranroq tushunish, turli

[2] Jo‘rayev Ashurali. Kitobning harid qilingani emas, o‘qilgani hisob. www.xurshiddavron kutubxonasi.16.04.2016.

[3] Kamoljonova D.X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda nasriy asarlarning o‘rni // Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarini tarbiya turlariga oid ta’limotlari hamda ulardan foydalanish mexanizmlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari to‘plami. Respublika konferensiya to‘plami. 2025. 20-21may, 303-b.

[4] Sultonova M. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasida kitob o‘qishning ahamiyati. – Oila va jamiyat ilmiy to‘plami, 2023.

[5] Tadjibaeva F. Shaxnoza Kamolova. Oilada bolalarda kitobxonlikni shakllantirish omillari. – Текст : непосредственный. Молодой ученый. –2020. –

ijtimoiy vaziyatlarni baholash hamda empatik munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan badiiy adabiyot shaxsning refleksiv tafakkurini rivojlantirish va uning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Estetik did – bu insonning go‘zallikni idrok etish, anglash, baholash va yaratishga bo‘lgan qobiliyati, shuningdek, uning ichki ehtiyoji sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularda hayotiy voqea-hodisalarga estetik munosabatni shakllantiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi hamda estetik qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishning psixologik-pedagogik zaruriyati shundan iboratki, u shaxsning ma’naviy-axloqiy dunyosini boyitadi, go‘zallikni idrok etish va undan zavq olish qobiliyatini shakllantiradi, hayotiy faoliyatida estetik mezonlarga tayanib ongli qaror qabul qilish imkonini beradi. Estetik didni rivojlantirish o‘quvchilarni nafaqat san’at asarlari, balki tabiat, jamiyat va inson faoliyatidagi go‘zallikni his etishga, ularni qadrlashga o‘rgatadi.

Estetik did inson psixikasining mukammal, yanada nozik va murakkab qismidir, u shaxsning san’at asarlarini, tabiatdagi go‘zallikni, atrof-muhitdagi jozibadorliklarni anglash va qadriga yetish qobiliyatidir. Estetik did insonning hissiyotlar, tasavvurlar va tafakkurining sintezidan hosil bo‘lib, go‘zallikni idrok etish darajasini belgilaydi. Psixolog olimlar bu tushunchani shaxsning ijodiy tafakkurining, hissiy sezgirligining va madaniy savodxonligining birligi sifatida ko‘rishadi.

“Estetik did” tushunchasi va uning tashkil etuvchilari haqida gapirganda, avvalo, estetik didning o‘ziga xos tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqish kerak. Pedagogika va estetik did nazariyasida olimlar estetik didni shaxsning go‘zallikni idrok etish, baholash va yaratish qobiliyati sifatida ko‘rishadi.

Bolalar kichik yoshdan boshlab estetik did shakllanish jarayonini boshlaydi. Boshlang‘ich yoshda bu jarayon asosan hissiyotlar, tasavvur va nazariy laboratoriya sifati bo‘lib, bola atrofdagi ob’ektlarni qiziqish va zavq bilan qabul qiladi. Bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriy san’at, o‘yin va boshqa badiiy faoliyat orqali bu jarayon kengayadi va chuqurlashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Mazkur yosh davrida bolalar borliqni asosan hissiy-obrazli tarzda qabul qiladi, bu esa estetik ta’sirlarning samaradorligini oshiradi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok, tasavvur va hissiyot faol rivojlanish bosqichida bo‘ladi. Ular ranglar, tovushlar, shakllar va obrazlarga nisbatan yuqori sezgirlikka ega. Aynan shu sezgirlik estetik tarbiya uchun qulay zamin yaratadi.

Estetik faoliyatlar —rasm chizish, musiqa tinglash, badiiy matnlarni o‘qish – o‘quvchilarning nafaqat tasavvurini, balki ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu faoliyatlar diqqatni jamlash, kuzatuvchanlik va emotsional barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, inklyuziv ta’lim muhitida bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini rivojlantirish masalasini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish, uning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari va samarali metodlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar inklyuziv ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, bolalar adabiyotidan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik va ijtimoiy kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo‘riboyev Ikrom. Hamma o‘qiyapti, o‘qing! Jadid gazetasi 2024-yil, 50-son.
2. Jo‘rayev Ashurali. Kitobning harid qilingani emas, o‘qilgani hisob. www.xurshiddavron kutubxonasi.16.04.2016.
3. Kamoljonova D.X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda nasriy asarlarning o‘rni // Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarini tarbiya turlariga oid ta’limotlari hamda ulardan foydalanish mexanizmlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari to‘plami. Respublika konferensiya to‘plami. 2025. 20-21may, 303-b.
4. Sultonova M. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasida kitob o‘qishning ahamiyati. – Oila va jamiyat ilmiy to‘plami, 2023.
5. Tadjibaeva F. Shaxnoza Kamolova. Oilada bolalarda kitobxonlikni shakllantirish omillari. – Текст : непосредственный. Молодой ученый. –2020.